


## Milliy test tizimi O‘zbek tili fani sertifikati uchun o‘tkazilgan test sinovi approbatsiyasi natijalari tahlili

O‘zbek tili fanidan har bir variant 50 ta test topshiriqlaridan iborat bo‘lib, approbatsiya test sinovida jami 239 nafar o‘quvchi ishtirok etdi.

Statistik tadqiqotlar uchun mo‘ljallangan maxsus dastur yordamida pedagogik testlarning asosiy statistik tavsiflari: o‘rta qiymat, gistogrammani qurish, moda va mediana kabi ko‘rsatkichlarni hisoblash hamda test ballarining umumiy dispersiyasi (standart og‘ish) aniqlandi. Bu ko‘rsatkich test ballari o‘rtasidagi tafovutlarni umumlashtiradi, ularga xos bo‘lgan yo‘nalishni, qonuniyatni ochib beradi. Test ballarining eng ko‘p takrorlanadigan qiymati statistikada **moda** deb, o‘shish tartibida joylashtirilgan test ballari qatorining o‘rtasida joylashgan qiymat esa **mediana** deb ataladi. O‘rta arifmetik qiymat, moda va mediana qiymatlari o‘zaro teng bo‘lganda test ballari taqsimoti simmetrik bo‘ladi. Ushbu statistik ko‘rsatkichlar biri-biridan qanchalik ko‘p farq qilsa, ballar taqsimoti normal taqsimotdan shunchalik uzoq bo‘ladi.

Quyidagi jadvalda O‘zbek tili fanidan test topshiriqlari natijalari bo‘yicha statistik ma‘lumotlar hamda taqsimot gistogrammasi keltirilgan.



Jadvaldagi qiymatlardan - o‘rtacha qiymat (60,33) eng kichik, mediana (64) o‘rtada va moda (72) eng katta ekanligini aniqlandi. Gistogrammada ko‘rinib turibdiki, taqsimotning chap tomoni normal taqsimotga nisbatan cho‘zilganligi, cho‘qqilari normal chiziqqa nisbatan balandligi kuzatildi.

Shuningdek, O‘zbek tili fani bo‘yicha eng muhim ko‘rsatkichlardan **ishonchlilik koeffitsienti** (Kronbax alfasi) **0,902** ga hamda **o‘lchashning standart xatoligi** (SEM) **5,45** ga teng ekanligi aniqlandi.